



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI**  
**HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3 uy

**Bojxona brokerlari**  
**uyushmasi**

30 iyun 2026 yil.

**05/8-7929-son**

Bojxona qo‘mitasi tomonidan Sizning Bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda bildirgan murojaatingiz ko‘rib chiqilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi.

“Bojxona qiymati deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma”ning (ro‘yxat raqami 2868, 2017-yil 14-mart) 3-ilovasiga ko‘ra bojxona organlari qo‘llaydigan xavfni boshqarish tizimi tomonidan **o‘rta yoki yuqori** ko‘rsatkichga ega xavf darajasi aniqlangan hollarda, agar ma‘lum qilingan bojxona qiymati oxirgi to‘qson kalendar kun ichida olib kirilib, 1-usulda qabul qilingan tovarning bojxona qiymatidan **past bo‘lsa**, deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan baholanayotgan tovarni yetkazib berilishiga aloqador bo‘lgan **uchinchi shaxslar bilan kontraktlar va to‘lov hisoblari** taqdim etilishi lozimligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 301-moddasiga muvofiq Bojxona qo‘mitasi Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh bitimi VII moddasini qo‘llash to‘g‘risidagi bitimning (Marokash, 1994-yil 15-aprel), shu jumladan ushbu bitimga doir sharhlarning tegishli qoidalaridan, shuningdek Jahon savdo tashkilotining Bojxona baholash qo‘mitasi va Jahon bojxona tashkilotining Bojxona baholash bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan tovarlarning bojxona qiymatiga doir hujjatlardan kelib chiqqan holda bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullarini tanlashda bojxona qiymatini aniqlash qoidalarining bir xil qo‘llanilishini ta‘minlashga qaratilgan **tavsiyalarni** ishlab chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur holat bo‘yicha Jahon bojxona tashkiloti hujjatlari o‘rganib chiqilgan holda Bojxona qo‘mitasining tavsiyasi ishlab chiqilishi va e‘lon qilinishini ma‘lum qilamiz.

Mazkur javob xati Sizni qanoatlantirmagan taqdirda, o‘rnatilgan tartibda yuqori turuvchi idoralarga yoki sud organlariga murojaat qilish huquqiga ega ekanligingizni ma‘lum qilamiz.

**Bojxona to‘lovlari**  
**boshqarmasi boshlig‘i**



**A. Muqimov**

XIT3563

XIT3563

XIT3563

XIT3563

XIT3563

Ijr.: D.Raxmonov  
Tel: 55-502-76-00 (75-49)

XIT3563